



АРХИТЕКТУРА (ТУРЛАРИ БЎЙИЧА)

Toshkent arxitektura-qurilish
instituti huzuridagi tarmoq markazi

**SHAXARSOZLIK VA TUMANNI
REJALASHTIRISH**

TOSHKENT-2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 2 noyabrdagi 1023-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: TAQI, a.f.n., dots. Usmanov M.S.

Taqrizchi: TAQI, dots. Talipov M. A.

O'quv -uslubiy majmua TAQI Kengashining 2020 yil 4 sentabrdagi 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II.MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III.NAZARIYMASHG'ULOT MATERIALLARI.....	15
IV.AMALIYMASHG'ULOT.....	44
V. KEYSLAR.....	52
VI. GLOSSARIY.....	54
VII.ADABIYOTLAR RO'YHAT.....	63

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ishchi dastur oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishlari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur mazmunida xorij ta'lim tajribasi, rivojlangan davlatlarda ta'lim tizimi va uning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

“Shaxarsozlik va tuman rejalashtirish” modulidan ishchi dastur “Arxitektura” va “QHALTE” ta'lim yo'nalishlari sohasidagi Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatini olib borayotgan professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari bayon etilgan. Dars mashg'ulotlari yangi texnologiyalarni qo'llash qonun-qoidalari talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ishchi dasturda keltirilgan ta'lim texnologiyalarining har biri o'zida o'quv mashg'ulotini o'tkazish shart-sharoiti to'g'risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko'zlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotining rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o'quv mashg'ulotlarining texnologik kartasini, ya'ni professor-o'qituvchi mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta'riflanishini ham o'z ichiga oladi.

Ishchi dasturning konseptual asoslari qismida dastlab “Shaxarsozlik va tuman rejalashtirish” modulining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur modulning tarkibiy tuzilishi, o'qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan konseptual fikrlar, axborotlar berilib, so'ngra loyihalashtirilgan o'qitish texnologiyalari taqdim qilingan.

Ishchi dasturning mazmuni tinglovchilarni “Shaxarsozlik va tuman rejalashtirish” modulidagi nazariy metodologik muammolar, chet el tajribasi va uning mazmuni, tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ilg'or g'oyalar va maxsus fanlar doirasidagi bilimlar hamda dolzarb masalalarni yechishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Modulning maqsadi va vazifalari

“ Shaxarsozlik va tuman rejalashtirish ” **modulining**

maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini shaharsozlik sohasidagi innovatsiyalarga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo‘llash va yaratish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“ Shaxarsozlik va tuman rejalashtirish ” **modulining vazifalari:**

- shaharozlik sohasidagi me‘yoriy hujjatlar tizimidagi, qurilishni tashkiliy texnologik tayyorlash tizimidagi, shaharlari rekonstruksiya qilish va obodonlashtirish sohasidagi innovatsiyalar va dolzarb muammolar mazmunini o‘rganishga yo‘naltirish;

- tinglovchilarda shaharsozlik sohasidagi innovatsiyalarning ilg‘or texnologiyalariga doir olgan yangi bilimlarini o‘z fanlarini o‘qitishda o‘rinli ishlata olish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat.

MODUL BO‘YICHA TINGLOVCHILARNING BILIMI, KO‘NIKMASI, MALAKASI VA KOMPYUTENSIYALARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

“ Shaxarsozlik va tuman rejalashtirish ” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- shaharsozlik sohasidagi so‘nggi yutuqlar, me‘yorlar tizimi;
- shaharsozlik va landshaft sohasidagi fanlarni o‘qitishdagi ilg‘or xorijiy tajribalar;
- shaharsozlik sohasidagi innovatsion g‘oyalar;
- shaharsozlik sohasidagi dolzarb masalalar;
- shaharsozlikda hozirgi zamon muammolarini *o‘rganib chiqishi* kerak.

Tinglovchi:

- shaharsozlik loyiha g‘oyasini asoslash, uning mohiyatiga ko‘ra loyihalash turlarini ajrata olish, me‘yor va direktiv organlarining hamda xalqaro talablarga javob beradigan hujjatlar tuzish;

- shaharlarni rivojlantirish va obodonlashtirish loyiha tizimidagi yangiliklarni urganish;
- O'zbekiston Respublikasining arxitektura va qurilish sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi o'zgarishlarni amaliyotga tatbiq eta olish;
- shaharsozlik sohasida dunyo bo'yicha erishilayotgan yutuqlardan xabardor bo'lish;
- shaharsozlik sohasida mutaxassilarni zamonaviy talab darajasida o'qitish mezonlarini ishlab chiqish;
- shaharsozlik yo'nalishida hozirgi kundagi muammolarni hal etish borasida *ko'nikmalarga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- loyiha g'oyasini asoslash grafanalitik modelidan foydalana olishi, shaharsozlik nazariyasi tarixi va zamonaviy tendeniylarini, xalqaro loyiha tajribalarini o'rganib chiqqan holda amaliyotda foydalanishi;
- kam energiya sarf qiluvchi, tabiatga zarar keltirmaydigan eko shaharlar loyihalash *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi: o'z fanlarini o'qitishda shaharsozlik sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi, loyihalashni tashkiliy texnologik tayyorlash tizimidagi, eko shaharlarni loyihalash sohasidagi yangiliklarni o'rinli ishlata olish *kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.*

MODULNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH BO'YICHA TAVSIYALAR

“Shaharsozlik va tuman rejalashtirish” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;
- virtual amaliy mashg'ulotlar jarayonida loyiha va keys texnologiyalarini qo'llash.

MODULNING O'QUV REJADAGI BOSHQA MODULLAR BILAN BOG'LIQLIGI VA UZVIYLIGI

“Shaharsozlik va tuman rejalashtirish” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Yangi arxitektura: nazariya va amaliyot”, “Shaharsozlik va tumanni rejalashtirish” va boshqa blok fanlari bilan uzviy bog'langan holda ularning ilmiy-nazariy, amaliy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

MODULNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

Fan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish, ularning qurilish sohasidagi me'yoriy hujjatlar tizimidagi, qurilishni tashkiliy texnologik tayyorlash tizimidagi, energiya tejamkor binolarni loyihalash sohasidagi innovatsiyalar bo'yicha malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar arxitektura va qurilish sohasidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llashga doir kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Tinglovchining ukuv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya ukuv yuklamasi			Kuchma mashg'ulot
			Jami	Jumladan		
				Nazariy	Amaliy	
1	Shaxarsozlik nazariyasi. Shaxarsozlik bilimlar tuzilmasi	2	2	2		
2	Joylashtirish tuzilmasi (turi va shakllari)	2	2	2		
3	Makon- ijtimoiy muammo sifatida	2	2	2		
4	Axoli yashash joyini bosh rejasi. Loyixalash va amalga oshirish	4	4	4		
5	Bosh rejalarni ishlab chikishda zamonaviy yondashuvlar	4	4		4	
6	Kelajak shaxri – tizimli taxlilning zarur shartlari	4	4		4	
7	Loyiha institutiga tashrif	2	2			2
Jami		20	20	10	8	2

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Shaxarsozlik nazariyasi. Shaxarsozlik bilimlar tuzilmasi.

Arxitektura-eng qadimiy san'at turidir. Shaharsozlik keng mazmunga ega tushuncha. Aholi yashash joyi. Ijtimoiy-iqtisodiy masalar. Sanitariya-gigiyenik masalalar. Shaharlar klassifikatsiyalari. Kurort, ilmiy markaz, temir yo'l tugunlari.

2-Mavzu: Joylashtirish tuzilmasi (turi va shakllari)

Aholi joylashishi. Aholi joylashishining shakli. Aholi yashash joylarining guruhli tizimi. Subregional va regional aholi joylashuvi tizimlari. Aholi joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar. Hidrogeologik shart-sharoitlar. Mineral xom ashyo resurslar. Iqlimiy shart-sharoitlar.

3-Mavzu: Makon – ijtimoiy muammo sifatida.

Tuman rejalashtirish tuzilmalari va loyihalari. Sanoat tumanlarini rejalashtirishning asosiy masalalari. Qishloq xo'jaligi tumanlari. O'zbekistonda loyihalash bosqichlari. O'zbekiston tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi. Toshkent aglomeratsiyasi tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi.

4-Mavzu: Aholi yashash joyini bosh rejasi. Loyixalash va amalga oshirish.

Yangi shahar turar-joy hududining o'ziga xos turlari. turar-joy tumanlari, sanoat va dam olish (rekreatsion) tumanlari. Aholi yashaydigan hududlarda ishlab chiqarish chiqindilarini chiqarmaydigan va katta yuk aylanishiga ega bo'lmagan sanoat korxonalarini hamda ilmiy-tadqiqot institutlari va ma'muriy-xo'jalik muassasalari.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-Amaliy mashg'ulot:: Bosh rejalarni ishlab chikishda zamonaviy yondashuvlar

Bosh rejani rejalashtirish. Turar-joy binolari jamoat va sanoat binolaridagi elementlari. Turar-joy tumanlarini rejalashtirish va qurishning memoriy badiiy vazifalarini yechish. Hozirgi zamon me'morchiligi uchun urbanistik manzaralarning bosqichma-bosqichi.

2-Amaliy mashg'ulot: Kelajak shaxri – tizimli taxlilning zarur shartlari.

Kelajak shaharlari. Masdar shahri (Masdar City) loyihasi. Lilypadni loyihasi.

KO'CHMA MASHG'ULOT

ko'chma mashg'ulot: Loyiha institutiga tashrif.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «study» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻini belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Yangi shaharsozlik nazariyasida va amaliyotida tarixiy shaharlarni saqlash, ta'mirlash va qayta qurish doimo dolzarb masalalardan biri bo'lgan. O'zbekiston va chet el mamlakatlari tajribasi buni isbotlaydi. Zamonaviy shaharlarning bir qismi hisoblangan tarixiy shaharlar markazlari bugungi kunda mashinalar tirbandligi muammosiga duch kelmoqda. Natijada hududlarda keng yo'llar o'tkazilib, an'anaviy arxitekturaga ega bo'lgan qismlarning buzilib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bu hududlarda zamonaviy bino va komplekslarning (Tashkent City) qad ko'tarishi tarixiy muhit yo'qolishiga olib kelmoqda. Bu kabi muammolarni qanday yechish mumkinligi xususida takliflar bering?

- Keysdagi muammoni samarali bartaraf etish yo'llarini belgilang (kichik guruhlarda);
- Taklif etilayotgan muammoni yechish yo'llarini asoslab bering (individual).

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

“Yangi arxitektura: nazariya va amaliyot”

SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring

S	Nazariyani bilishlik	Arxitektura tarixi va nazariyasi xususida, uning taraqqiyoti to‘g‘risida ma’lumotga ega
W	Nazariya va amaliyotni bog‘lay olmaslik	O‘zidagi ushbu mavjud ma’lumotlarni amaliyotda qo‘llashni bilmaslik
O	Me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish asosida va xorij tajribasidan foydalanib tajriba to‘plash	Amaliyotda mavjud qurilish me‘yorlari va qoidalari, shaharsozlik normalari va qoidalarini o‘rganish imkoniyatining mavjudligi
T	Real arxitektura loyihalari ustida ish olib bormaganlik	Real quriladigan arxitektura ob‘ektlari loyiha-smeta hujjatlarini bajarmaganlik

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya tinglovchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida bilimlarni mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:



- tinglovchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili tinglovchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Fikr: Toshkent shahrida ichki halqa yo'li (Nurafshon ko'chasi) o'tkazilishi va uning atrofida ko'p qavatli binolar qurilishi amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar qanday muammolarni keltirib chiqaradi va qanday muammolarning oldini olishga yordam beradi?

Topshiriq: Mazkur tadbirlarga bo'lgan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir tinglovchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Loyiha-smeta hujjatlari	Tinglovchi 1-ustundagi tushuncha yuzasidan o'zining fikr-mulohazalarini yozadi	
Jamoat binolari	Tinglovchi 1-ustundagi tushuncha yuzasidan o'zining fikr-mulohazalarini yozadi	
Ishchi loyiha	Tinglovchi 1-ustundagi tushuncha yuzasidan o'zining fikr-mulohazalarini yozadi	

Qurilish me'yorlari va qoidalari	Tinglovchi 1-ustundagi tushuncha yuzasidan o'zining fikr-mulohazalarini yozadi	
---	---	--

III.NAZARIY MASHG'ULOT MATYERIALLARI

Shaxarsozlik nazariyasi. Shaxarsozlik bilimlar tuzilmasi.

Arxitektura - eng qadimiy san'at turidir. Odam o'zi uchun birinchi turar-joy qurgandan boshlab arxitektorlik kasbi shakllana boshlagan. Odamlar alohida turar-joylardan asta-sekin yashash guruhlari, so'ngra shaharlar qurilishiga o'ta boshlaganlar.

Shaharsozlik keng mazmunga ega tushuncha. U ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan aholi yashash joylarini tashkil qilish muammolari, hamda aholi turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan turar-joylarni yaratish masalalarini ham o'z ichiga oladi.

Aholi yashash joyi - doimiy aholisining to'planishi moddiy fondlar (binolar, inshootlar, yo'llar, muhandislik tarmoqlari va boshqalar) bilan mustahkamlangan hududning bir qismi.

rejalashtirish elementlari hisoblanadi.

Shahar - bu bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p turli korxonalar va zavodlar majmuasidan iborat. Har kuni shahar minglab tonna xomashyo va oziq-ovqatlar iste'mol qiladi, minglab tonna sanoat va boshqa chiqindilarni chiqaradi.

Har bir arxitektura inshooti - agarda u haqiqiy arxitektura asari bo'lsa, badiiy asarlar qahramonlariga o'xshash o'zining qaytarilmas individualligiga, o'ziga xos ko'rinishiga ega bo'ladi. "Shaharni esa badiiy asarning - romanning o'ziga o'xshatish mumkin, unda o'nlab, yuzlab hatto minglab arxitekturaviy «qahramon»lar o'zaro murakkab aloqada bo'ladi" (A.E.Gutnov). Bunga ishonch hosil bo'lishi uchun yaxshisi o'z shahring bo'ylab piyoda markazdan to shahar chetigacha aylanib chiqishing kerak. Biz keng maydonlar o'zlarining ko'zga ko'ringan imoratlari, bezangan xiyobonlari bilan keng bo'lmagan ko'chalarga almashinishini ko'ramiz. Uylar bir-biriga yaqin zich joylashgan. So'ngra imoratlar kamaya boshlaydi, magazinlar ko'zga tashlanadi, imoratlar orasida bo'sh joylar uchraydi, sanoat tashkilotlarining devorlari uchray boshlaydi. Boshqa tomondan

to'g'ri yo'llar, xiyobonlar, ular bo'ylab joylashtirilgan ko'p qavatli uylar ko'zga tashlanadi. Ular orasidan boshqa shunga o'xshash, uylar ko'rinadi, go'yo buning poyoni yo'qday. Lekin birdan ular tugaydi va bog'lar dalalarga borib bevosita taqaladi. Shunday yoki shunga o'xshash ko'rinishni o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan har bir shahar aholisi ko'rishi mumkin.

Ko'pincha arxitektura va shaharsozlikni bir-biridan ajratishga harakat qilinadi. Hozirgi kunda ham arxitektorlar bevosita bino va inshootlarni hajmiy loyihalovchilarga hamda aholi yashash joylari rejalarini yaratuvchilarga (shaharsozlar) bo'linadi. Bevosita bino va inshootlarni loyihalovchi arxitektorlar ba'zan shaharlar haqida yetarli tushunchalarga ega bo'lmaydilar va aksincha, shaharsozlar esa o'z navbatida bino va inshootlar haqida kerakli tasavvurga ega bo'lmaydilar. Lekin ularning ikkalasi ham arxitektorlardir. Ammo shaharsozlikning jamiyat hayotidagi ahamiyati tobora ortib borayotgan hozirgi kunda bino va inshootlar bilan shug'ullanuvchi arxitektor bir vaqtning o'zida shaharsoz ham bo'lmasligi mumkin emas. Arxitektura o'z ichiga shaharsozlikni qamrab oladi. Ularga shartli ravishda alohida qaraladi. Amaliyotdagi ko'p xatolar arxitektorlarning shaharsozlik talablari va tushunchalaridan ajralgan holda alohida binolar haqida fikr qilishlari tufayli yuz beradi. Murakkab ijodiy jarayonda o'z rolini anglab yetmagan arxitektor o'zligicha qoladi.

Dastlabki shaharlar hunarning inson faoliyatining alohida tarmog'i sifatida shakllana boshlagan davrda, jamiyatda mehnat taqsimoti vujudga kelishi natijasida shakllandi. Shaharlar harbiy istehkomlar(qal'a shaharlar) va savdo manzilgohlari sifatida shakllana boshladi.

Shaharlar qurilishi prinsiplari haqida dastlabki yozma va arxeologik ma'lumotlar shahar madaniyatining qadimgi markazi hisoblanadigan Qadimgi Messopotamiyaga tegishli.

Shaharsozlik antik davrga kelib gullab-yashnadi. Grek shaharlarida *gippodam sistemasi* deb nomlanuvchi aniq to'g'ri burchakli prinsipga asoslangan

ko‘chalar loyihasi keng tarqaldi. Qachonlardir Rim imperiyasi tarkibida bo‘lgan shaharlarda bu sistema keyinchalik ham rivojlandi. Bu sistema aloqalarning qulaylashuvi va issiq iqlim sharoitida hududni yaxshi shamollatishga imkon beradi.

Hozirgi texnika inqilobi asrida teskari masala, ya’ni tabiatni saqlash, qayta tiklash va sog‘lomlashtirish inson uchun hayotiy zaruriyatdir. Shahar va tabiat, inson va tabiat bu arxitektor uchun bir ma’nodagi tushunchalardir. Ular arxitektordan o‘z faoliyatiga falsafiy yondoshishni talab etadi, chunki arxitektor inson va tabiat o‘rtasidagi birlikni o‘rnatishdagi yetakchi shaxsdir. O‘zbekistonda shaharlarni loyihalash turar-joy binolari va sanoat korxonalarini sanitariya-gigiyena oraliqlarini ta’minlagan, qulay transport aloqalarini tashkil qilgan holda o‘zaro eng maqsadga muvofiq joylashtirish tamoyiliga asoslanadi. Bunda shahar va shahar atrofida bog‘lar tashkil qilish, o‘rmonlarni kengaytirish, suv havzalarini tashkil qilish va hokazolar orqali tabiatni odamga yaqinlashtirish ko‘zda tutiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar shahar va qishloq rivojlanishining kelajagini, tabiiy va hududiy resurslardan iqtisodiy samarali foydalanishni, aholining o‘shishini, aholiga optimal madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatishni tashkil qilishni hisobga olgan holda aholi joylashuvi tizimini tanlashda hal qilinadi.

Sanitariya-gigiyenik masalalar aholi hayoti uchun sog‘lom sharoit yaratish, sanoat va aholi yashash tumanlari orasida sanitariya-himoya qismini belgilash, ko‘kalamzorlashtirish, tuproqning, havoning va suvning (suv havzalarining) ifloslanishiga va shovqinga qarshi kurashni nazarda tutadi. Issiq iqlimli tumanlarda tashqi muhitning optimal mikroiklimini yaratish, quyoshdan saqlovchi qurilmalarni o‘rnatish, binolarni zaruriy yo‘nalishda joylashtirish, insolyatsiya, hududlarni quritish yoki obodonlashtirish hamda foydali shamol yo‘nalishidan foydalanish masalalari hal etiladi.

Texnikaviy qurilish masalalar aholi yashash joylari qurilishi uchun tanlangan hududlarning muhandisona-geologik sharoitlarini o‘rganish, qurilish texnikasining darajasi va zamonaviy vositalarini aniqlash, transport va piyodalar

aloqalarining ratsional tizimini hal etish, hududlarni muhandisona tayyorlash va muhandisona obodonlashtirish (ichimlik suvi yetkazish, oqava suvlar o'tkazgich, issiq suv, sovuq suv, gaz va elektr ta'minoti va boshqalar) va hokazolarni hal qilish bilan bog'liqdir.

*Arxitekturaviy-badiiy masalalar*shaharning umumiy arxitektura-rejaviy tuzilishini, ko'cha va shox ko'chalar tarmoqlarini aniqlash, shahar alohida qismlarining funksional tuzilishini hal qilish, shu jumladan, markaz kompozitsiyasini yechish bilan bog'likdir.

Shaharlar klassifikatsiyalari

Asosiy funksional hududlarni shahar hududida fazoviy taqsimlash ancha murakkab masaladir. Shaharning ayrim hududi bitta funksiyani bajarib, u monofunksional qismga aylanishi mumkin. Ayrim hududlarida bir nechta asosiy funktsiya qo'shib ketib, ular polifunksional hududni tashkil etadi.

Ilmiy yo'nalishdagi shaharlarda uning asosiy hududlari qatoriga ilmiy tadqiqod institutlari va konstruktorlik byurolari hududi qo'shiladi. Kurort shaharlarda asosiy shaharni tashkil etuvchi hududlar - ommaviy dam olish joylari, ko'kalamzorlarning yirik massivlari, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan dehqonchilik yerlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Ko'p funksiyali shaharlar - ma'muriy-xo'jalik, madaniy va iqtisodiy funksiyalarni o'zida muvofiqlashtiruvchi, hamda rivojlangan sanoat va transportga ega. Bular - poytaxtlar, viloyat markazlari va boshqa yirik shaharlar (ularda yuqoridagi sanab o'tilgan funksiyalarning har biri) shaharsozlik ahamiyatiga ega. Bu turdagi shaharlar muhim tuman tashkil etuvchi markazlardan bo'lib, keng va xilma-xil aloqalarga, murakkab hudud tuzilishiga egadirlar.

Tumanlararo ahamiyatli sanoat va transport funksiyalari ustun bo'lgan shaharlar. Bu turdagi shaharlarni sanoat, transport va sanoat-transport shaharlarga ajratish mumkin.

Boshqa funksiyalar ustun bo'lgan shaharlar - asosan mahalliy markazlar vazifasini bajaruvchi kichik shahar joylari.

Kurort, ilmiy markaz, temir yo'l tugunlari vazifasini bajaruvchi shaharlar.

Shaharlar aholisining soni ham uning tipologik belgilaridan hisoblanadi. Shaharlarni aholisining soniga qarab quyidagi guruhlariga bo'lish qabul qilingan:

- eng yirik shaharlar - 500-1000 minggacha va undan yuqori;
- yirik shaharlar - 250-500 minggacha;
- katta shaharlar -100-250 minggacha;
- o'rta shaharlar - 50-100 minggacha;
- kichik shaharlar - 50 minggacha.

Shaharlar qancha katta va ularning aholisi qancha ko'p bo'lsa, ular egallagan hudud shuncha katta bo'ladi, tarxii tarkibi shuncha murakkab bo'ladi, tarxning xarakteri o'zgaradi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaxarsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.

2. D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.

3. T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»

4. «Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»

5. G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)

6. Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»

7. Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve» 2006

8. Nilsen V.A. U istokov sovremennogo gradostroitelstva

9. Uzbekistana. Tashkent 1988.

10.A.Gutnov. V.Glazыchev. Mir arxitektury (Litso goroda). M.

11.«Molodaya gvardiya» 1990.

12.Avdotin L.N. i dr. Gradostroitelnoye proyektirovaniye» Uchebnik

13.dlya VUZa M.,Stroyizdat 1989.

14.ShNK 2.07.01 – 03

15.Persik Ye.N. «Rayonnaya planirovka (territorialnoye planirovaniye)»: Uchebnoye posobiye dlya vuzov 2006

2-Mavzu: Joylashtirish tuzilmasi (turi va shakllari)

Aholi joylashishi atamasi orqali mamlakat hududida shaharlar va boshqa aholi yashash joylarining birgalikda, o‘zaro bog‘liq holda fazoviy-hududiy joylashishi tizimi tushuniladi.


Boshqacha so‘z bilan aytganda Aholi joylashishi deganda mavjud aholi yashash joylarini rivojlantirish va yangilarini barpo qilish orqali hududlarda aholining taqsimlanish jarayoni tushuniladi.

Kattaligi turlicha bo‘lgan shaharlarda ularning xalq xo‘jaligi tuzilishi, ularni ijtimoiy mehnat bo‘linishidagi bajaradigan roliga asosan mos keladi. Kon sanoati, hamda qayta ishlash sanoatining boshlang‘ich tarmoqlari kichik va o‘rta shaharlarga, hamda shahar toifasidagi qishloqlar tomon tortiladi (Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod, Krasnogorsk va boshqalar). Sanoat «yakuniy» tarmoqlari (mashinasozik, kimyo, radioelektronika) esa katta, yirik va eng yirik shaharlarda ko‘proq rivojlanadi. Tadqiqotlar umuman shaharlarning o‘sishi bilan ularda sanoat to‘planishining darajasi ortib borishini ko‘rsatadi. Katta, yirik va eng yirik shaharlar aholisining ko‘payishi bilan bir vaqtda ularning soni ham ko‘payib borishi kuzatilgan.

1926 yilda O‘zbekistonda 26 ta shaharlar bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni 129 tani tashkil etadi. Ularning jadal o‘sishi dastavval ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog‘liq (sanoat bilan fanning qo‘shilishi, ta‘lim va boshqalar).

Ijtimoiy mehnatning bo‘linishida kichik va o‘rta shaharlar katta o‘rin egallaydi. Ular absolyut ko‘pchilikni tashkil etadilar. Hozirgi kunda kichik va o‘rta shaharlarning o‘sishi, kelajak rivojlanishi, ularning arxitektura–rejaviy yechimlari sifatini oshirish muammolari mavjud. Ularda erkin mehnat resurslarini ijtimoiy mehnatga jalb etish muammosi katta o‘rin egallaydi.

Shunday qilib, aholi joylashishi usuli ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ijtimoiy mehnat bo‘linishi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning madaniyati va dunyoqarashi bilan belgilanadi, tabiiy-geografik sharoitlar uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.



Yirik shahar va tumanlarda mehnat resurslari taqsimoti.

Yirik shahardan uzoqlashgan sayin mehnat aloqalari pasaygan.

Aholi joylashishining qanday ko‘rinishlari mavjud?

Aholi joylashishining turlari ishlab chiqarishning ixtisoslashishiga va uning tarmoqlarining kooperatsiyasiga bog‘liq. Aholi joylashishining turlari, shuningdek aholi yashash joylari iqtisodiy bazasining xususiyatlari va ularning kattaligi bilan belgilanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi tugatilishi bilan mehnatning taqsimlanishi – hunarmandchilik va savdo sohasidan qishloq xo‘jaligining ajralishi jarayoni aholi joylashishining ikkita turi – shahar va qishloq turini vujudga keltirdi.

Hozirgi kunda ham aholi joylashishining ikkita asosiy turini ajratish mumkin:

- *shahar turi* - shaharlar va shahar turidagi kishloqlarning vujudga kelishi

va rivojlanishi bilan bog'liq;

– *qishloq turi* - turli qishloq aholi yashash joylarining rivojlanishi bilan bog'liq.

Har bir asosiy ko'rinish ichida iqtisodiy, tabiiy, demografik va boshqa o'ziga xos sharoitlarga bog'liq holda bir qator turlarini ajratish mumkin. Aholi joylashishining shahar ko'rinishi ichida aholining eng yirik, yirik va katta shaharlarda to'planishi bilan ajratib turadigan jamlangan yoki zichlashgan (konsentrirovannyy) turi hamda aholining ko'pchilik qismi o'rta, kichik shahar va shahar turidagi qishloq joylariga tarqalgan (dispersnyy) turlari bo'ladi.

Aholi joylashishining qanday shakllari mavjud?

Aholi joylashishining shakli aholi yashash joylari turining zichligi, ma'lum bir hudud chegarasida o'zaro joylashishi xususiyatlariga hamda aholi yashash joylari orasidagi aloqa turlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Aholi yashash joylari o'rtasida aloqalarning turli ko'rinishlari shakllanmoqda. Aholi yashash joylarining o'zaro joylashish xususiyatlari va ular orasidagi funksional aloqalar rivojlanishi aholi joylashishining ikkinchi alomatini – ularning *avtonom* (ART) yoki *guruh* (AGT) shaklga mansub ekanligini belgilaydi.

Aholi yashash joylarining regional tizimida (ART) aholi yashash joylari bir-birlaridan uzoq joylashgan, ular o'rtasidagi kommunikatsiyalar rivojlanmagan, transport aloqalari kuchsiz rivojlangan, aholi yashash joylari bir-biridan ajralgan holda aholi rivojlanadi, funksional aloqalar kuchsiz va turg'un emas.


Aholi yashash joylarining guruhli tizimida (AGT) esa, ular guruh tashkil etadilar. Bir-birlari bilan rivojlangan kommunikatsiya turi va turg'un funksional aloqalar bilan bog'langandir. Bu bir-birlari bilan rivojlangan hududiy ishlab chiqarish aloqalari, umumiy muhandislik infrastrukturali, ijtimoiy-madaniy, xizmat ko'rsatish markazlarining yaxlit turi bilan birlashgan, turli kattalikdagi xalq xo'jaligi sohasidagi shahar va qishloq aholi yashash joylarining majmuasidir.

Aholi joylashishini guruhli tizimi yirik va eng yirik, hamda tumanlararo va viloyat markazlari funksiyalarini bajaruvchi o'rta va katta shaharlar ta'siri zonasida shakllanadi.

Aholi joylashishining guruhli tizimida ularning markazigacha transportda yetib borish vaqti 1,5-2 soatni tashkil etadi. Markaz shaharning kattaligiga qarab aholi joylashishining guruhli tizimining uchta turini farqlashadi:


- yirik - markaz shahar aholisi 500 ming kishi;
- o'rtacha - markaz shahar aholisi 100-500 ming kishi;

-kichik - markaz shahar aholisi 50-100 ming kishi.



Aholi yashash joylarining guruhli sitemasini loyihalash metodikasi.

1 – funksional model; 2 – hududni baholash; 3,4 – fazoviy hududlarga ajratish modellari (sektorli, kombinatsiyalashgan); 5,6,7 – aholini joylashtirish variantlari (chiziqli, markazlashgan, guruhli); 8 – arxitekturaviy-rejaviy yechim.



Katta shahar asosida shakllangan aholi joylarining guruhli tizimiga sxematik misollar:

1 – yirik shahar bilan o‘zaro bog‘langan aholi yashash joylari; *2* – yirik shahar ta’siriga tortiluvchi aholi joylari.

Mamlakatimiz hududida uzoq muddat davom etgan mehnatning bo‘linishi jarayonida aholi joylashishining turlari va shakllari tarixan shakllandi. O‘zbekistonga xos xususiyati shundan iboratki, aholi joylashuvi jarayonida intensiv shaharsozlik o‘zlashtirish qismlari (vohalar) shakllandi, u yerda aholi joylari hududlari, mehnat joylari, xizmat ko‘rsatish markazlari, rekreatsion hududlarni o‘zaro bog‘liq rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud. Aholi joylarining kuchayib borayotgan makoniy integratsiyasi jarayonlari natijasida aholi joylashuvining tayanch karkasi, yagona hududiy funksional organizm aholi joylashuvi tizimi shakllanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi aholi joylashuvi shakli va shaharsozlik loyihalash ob’ektlarini murakkablashuviga olib kelgan. Bu yana alohida shahar va qishloq joylari orasidagi iqtisodiy, mehnat, madaniy-maishiy va boshqa aloqalarni intensivlashtirish natijasida ham yuzaga keladi. Bu esa hayot muhitini nafaqat alohida aholi joylari chegarasida, balki rivojlangan shaharsozlik tuzilmalari - aholi joylashuvi tizimlari doirasida takomillashtirish lozimligini ko‘rsatadi. Bu tizimlar o‘z navbatida yanada yirikroq subregional va regional darajadagi makoniy-tarxiy birliklar tarkibiga kiradilar. Subregional va regional aholi joylashuvi tizimlari ancha katta hududlar doirasida

(viloyat, iqtisodiy tuman, respublika) shakllanib, O'zbekiston hududida yagona aholi joylashuvi tizimini tashkil etadilar.

Tumanni rejalashtirishda hududning tahlili uchun qanday omillarni o'rganib chiqish lozim?

Aholi joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar:

- iqlim, tuproq va gidrogeologik sharoit;
- sanoat ishlab chiqarishi uchun baza hisoblangan foydali qazilmalar va yoqilg'i-energetika resurslari;
- transport kommunikatsiyalarining rivojlanishini belgilab boruvchi tabiiy shakl.

Insonlar hayoti va mehnatiga ta'sir etuvchi tabiiy iqlim omillari katta ahamiyat kasb etadi (harorat, shamol va namlik, ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik, yer reliefi, qurilishning geologik sharoitlari, seysmik holat, abadiy muzlik, sel, zamin cho'kuvchanligi va hokazolar).

Yer yuzasida aholining dastlabki joylashishi ibtidoiy jamoa bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqa bilan belgilangan.

Tabiiy sharoitlarning qulayligi qadimgi shahar madaniyatining iqtisodiy asosini tashkil etuvchi yirik sug'oriladigan yerlar tizimini shakllantirish imkonini bergan. Bunday yerlar tizimi Misrda Nil daryosining quyi oqimida, Messopotamiyada Tigr va Yefrat daryolari quyi oqimida, Hindistonda Hind va Ganga daryolari sohillarida vujudga kelgan.

Aholining cheklangan hududda to'planishi aholi joylashishining tabiiy sharoitlarga yangicha bog'liqliklarini belgiladi. Shaharlar to'planishi yirik sun'iy muhit massivlarini tabiiy muhitga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Odamlarni sun'iy muhit ichida cheklab, ularni; tabiatdan ajratib qo'ydi. Odamlarning atrof-muhitga kuchli ta'siri vujudga keldi va uning tabiiyligi yo'qola boshladi. Aholi yashash joylari tabiiy landshaftga majburan bo'ysungan shakllarni egalladi. Shu bilan bir qatorda, texnikaning taraqqiyoti natijasida reliefni qayta o'zgartirish va gidrogeologik sharoitlarga kuchli ta'sir ko'rsatish boshlandi. Lekin tabiatga bunday ta'sir ko'rsatishning maqsadga muvofiq keladigan chegarasi bor.

Hududni tahlil qilishning asosiy maqsadlari: undan turli xil sohalarda foydalanishga yaroqliligini aniqlash: shahar qurilishiga, qishloq va o'rmon xo'jaligiga, aholining ommaviy dam olish uchun 4 hududni tarxiiy tashkil etishga talablarni aniqlash.

Tabiiy omillarga quyidagilar kiradi:

- gidrogeologik shart-sharoitlar;
- mineral xom-ashyo resurslari;
- injener-geologik shart-sharoitlar;
- iklimiy shart-sharoitlar;
- gidrologik shart-sharoitlar;
- tuproqlar;
- o‘simlik va hayvonot dunyosi;
- landshaft tavsifi.

Geomorfologik shart-sharoitlarni o‘rganganda relefnining morfologik va morfometrik elementlariga: shakliga, genetik turiga, absolyut va nisbiy balandliklariga, erozion bo‘linish chuqurligi va qalinligiga, qiyaliklarga alohida e‘tibor beriladi. Topografik, geomorfologik va injener-geologik s‘yomkalar materiallari asos bo‘lib xizmat qiladi.

Geologik tuzilishi - hududning neotektonik aktivligi va seysmikasi, stratigrafik va litologik komplekslarning borligi, ularning tuzilishi, yoyilish qonuniyatlari va quvvati nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil uchun tektonik geomorfologik, geologik va boshqa geologiya fondidagi materiallardan foydalanadi.

Gidrogeologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda yer osti suvlarining suv eltuvchi gorizontlari, ularning tarqalishi, chuqurligi, suvga to‘yinganligi, kimyoviy tarkib va agressivligi kabi tavsifi beriladi.

Mineral xom ashyo resurslari sanoat ishlab chiqarish yoki kurort xo‘jaligini rivojlantirish bazasi sifatida tavsiflanadi, ularning tarqalish maydonlari esa tarxiy cheklanish sifatida xizmat qiladi. Bunda ishlab bo‘lingan maydonlar rekultivatsiya va xo‘jalik maqsadlari uchun keyinchalik foydalaniladigan hududlar sifatida qaraladi.

Sanoat ahamiyatidagi konlarning qisqacha geologik-iqtisodiy tavsifini keltirishda (joylashishi, turi, darajasi va o‘zlashtirish kelajagi, ishlab chiqarish usuli, tarqalish maydonlari va x.k.) geologiya vazirligining, tarmoq idoralarining materiallaridan foydalaniladi.

Injener-geologik shart-sharoitlarni tahlil qilganda injener-geologik hududlashtirish ko‘rsatkichlarining: geomorfologik, geologo-litologik, gidrogeologik, tuproqlarning tarkibi, fizik-mexanik va filtratsion xususiyatlari, ularning yuk ko‘tarish qobiliyatlari, zamonaviy geologik va injener-geologik protsesslar va holatlar, ularning tarqalishi va rivojlanish intensivligining tavsifi keltiriladi.

Kompleks geologik-gidrogeologik ekspeditsiyalar materiallari, geologik fond materiallari asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqlimiy shart-sharoitlar umumiqlimiy, qurilish-iqlimiy, fiziologik-iqlimiy va agroiqlimiy tavsiflarni o'z ichiga oladi.

Umumiy iqlimiy sharoitlarni tavsiflaganda havoning harorati va namligi, yog'ingarchilik, shamollar, quyosh radiatsiyasi, absolyut maksimum va minimum haroratlarning yillik amplitudasi, eng issiq va eng sovuq oylarning o'rtacha harorati, oylik o'rtacha havoning absolyut va nisbiy namliklari to'g'risidagi ko'rsatkichlar keltiriladi. Bundan tashqari yilning issiq va sovuq vaqtlaridagi o'rtacha yog'ingarchilik miqdori, yil davomidagi yog'ingarchilikli va qorli kunlar soni, qor qoplaminig balandligi, shamolning maksimal tezliklari keltiriladi.

Qurilish-iqlimiy sharoitlarni o'rganganda tegishli qurilish me'yorlari ko'rsatmalariga ("Qurilish klimatologiyasi va geofizikasi") amal qilish lozim.

Hududni fiziologik-iqlimiy baholaganda sanitar-iqlimiy zonalarga bo'lish yoki iqlimiy-rekreatsioon baholash uslublaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Agroiqlimiy baholash hududni issiqlik va namlik bilan ta'minlanganligini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Issiqlik bilan ta'minlanganlik aktiv vegetatsiya davridagi (havoning o'rtacha kunlik harorati 10°S dan yuqori) haroratlar yig'indisi bilan o'lchanadi. Namlik bilan ta'minlanganlik esa namlanish darajasi va gidrotermik koeffitsiyent bilan baholanadi. Hududni agroiqlimiy baholaganda "Agroiqlim resurslari" ma'lumotnomasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Gidrogeografiya tarmoqlari daryolarning uzunligi, suv omborlari va ko'llarning ko'zgu maydonlari, daryolarning suv yig'ish maydonlari, oziqlanish sharoitlari va suv sarfi, oqim tezligi, toshqinlar davomiyligi bilan tavsiflanadi.

Tuproqlar- ularning asosiy turlari va tarqalishi, errozion jarayonlar, sifat va agroiqtisodiy baholash bilan tavsiflanadi.

O'simlik va hayvonot dunyosi asosiy turlarining tarqalishi, o'simlik va hayvonlarning ekologik va sifat xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Landshaftlar ommaviy dam olish va turizmga estetik va kompozitsion xususiyatlari nuqtai nazaridan mos kelishi bilan hamda ularning antropogen buzilganligi jihatlari bilan tavsiflanadi. Tabiatning bebaho go'shalari sifatida eng qimmatli yoki yovvoyi hayvonlarning jon saqlaydigan landshaftlar aniqlanib, keyinchalik qo'riqlanadigan joylarga aylantirish ko'zda tutiladi.

Hududlarni baholash asosiy xo‘jalik yuritish turlari uchun amalga oshiriladi. Tumanni rejalashtirish tuzilmalarida: shaharsozlik, qishloq xo‘jaligi va dam olish; tumanni rejalashtirish loyihalarida esa - sanoat va grajdan qurilishi, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, ommaviy dam olish va tabiatni qo‘riqlash ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

16.D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaharsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.

17.D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.

18.T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vrozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»

19.«Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»

20.G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)

21.Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»

22.Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve»
2006

23.Nilsen V.A. U istokov sovremennogo gradostroitelstva

24.Uzbekistana. Tashkent 1988.

25.A.Gutnov. V.Glazыchev. Mir arxitektury (Litso goroda). M.

26.«Molodaya gvardiya» 1990.

27.Avdotin L.N. i dr. Gradostroitelnoye proyektirovaniye» Uchebnik

28.dlya VUZa M.,Stroyizdat 1989.

29.ShNK 2.07.01 – 03

Persik Ye.N. «Rayonnaya planirovka (territorialnoye planirovaniye)»: Uchebnoye posobiye dlya vuzov
2006

3-Mavzu: Makon – ijtimoiy muammo sifatida.

Tuman rejalashtirish tuzilmalari va loyihalari buyurtmachi tomonidan berilgan loyihalash topshirig‘i asosida bajariladi va chizmalar, hamda tushuntirish xatidan iborat bo‘ladi. Topshiriqda rejalashtirilayotgan hududda ishlab chiqarish kuchlari va aholi joylashishi rivojining kelajak yo‘nalishi belgilanadi, bundan tashqari, loyihalash tartibi va muddati ko‘rsatiladi. Tuman rejalashtirish loyihalari takliflari 20-25 yil muddatga ishlanadi va unda 2 bosqich: 1 bosqich va hisobga olingan muddat ajratiladi.

Tuman rejalashtirish tuzilmasi va loyihalarining chizma xujjatlariga topografik xaritaga ishlangan loyihaviy tarx va boshqalar kiradi.

Yozma hujjatlar tarkibiga tushuntirish xati (bayonnomasi) kiradi va unda qabul qilingan rejaviy yechimlarning asoslanishi, hamda amalga oshirish tartibi va muddatlari keltiriladi.

Tuman rejalashtirish qat'iy ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastavval tuman rejalashtirish tuzilmasi ishlanadi, unda xalq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining asosiy yo'nalishlari ko'rsatiladi; hududlarni rejaviy va funksional tashkil qilish asoslanadi; ayrim hududlar o'rtasidagi aloqalar belgilanadi, viloyat muhandislik-texnik infratuzilmasini tashkil etish belgilanadi, so'ngra alohida ma'muriy tumanlar uchun tuman rejalashtirish loyihalari ishlanadi, ularda hududlarni batafsil tahlil qilish asosida sanoat va fuqaro qurilishi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va dam olish hududlari maydonlari ko'rsatiladi. Har bir tuman va uning tarkibiga kiruvchi aholi yashash joylari aholisining soni aniqlanadi, aholi joylashishi, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va ommaviy dam olish hududlari tizimlarini shakllantirish bo'yicha arxitektura-rejaviy takliflar ishlanadi; tabiatni muhofaza qilish va landshaftni yaxshilash takliflari beriladi.

Tuman rejalashtirish tuzilmalari va loyihalarining quyidagi turlarini ko'rsatish mumkin:

- sanoat tumanlarini rejalashtirish;
- qishloq ma'muriy tumanlarini rejalashtirish;
- kurort tumanlari va hududlarini rejalashtirish;
- yirik shaharlar atrof qismini rejalashtirish.

Sanoat tumanlari. Sanoat iqtisodiy tumanlar shakliga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Sanoat tumanlarini rejalashtirishning asosiy masalalari bu quyidagi omillarni hisobga olgan holda hududlarni tashkil etish:

- quvvat va xom ashyo manbalariga yaqinlik;
- mahsulot iste'molchilariga yaqinlik;
- mehnat kadrlari bilan ta'minlanganlik;
- yuk tashishni osonlashtiruvchi qulay transport aloqalari mavjudligi;
- aholi uchun turar joy va ish joylari hududlari o'rtasida qulay aloqani

ta'minlash;

- shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun shahar atrofi qishloq xo'jaligi bazasini tashkil etish;

- atrof-muhit muhofazasi bo'yicha tadbirlar.

Qishloq xo'jaligi tumanlari. Ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligidir. Qishloq xo'jaligi tumanlarining tuman rejalashtirish loyihasi ularning ishlab chiqarish va aholi jolashishi xususiyatlariga bog'liq. Avvalo ushbu qishloq xo'jaligi tumanining yo'nalishi aniqlanadi (sabzavot yetishtirish, bog'dorchilik va h.k.). Ma'lum miqdorda tabiiy sharoitlar orqali belgilanadigan yo'nalish yer fondidan samarali foydalanishga yordam beruvchi tuman hududini qismlarga ajratish darajasida chuqurlashadi. Keyingi etapda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiquvchi va qayta ishlovchi korxonalarni sanoatning boshqa tarmoqlari korxonalarini bilan kompleks joylashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Agrar-sanoat integratsiyasi prinsipi asosida hozirgi qishloq xo'jalik muassasasi turi ajratiladi: hududiy agrar-sanoat majmualari, kombinatlar, birlashmalar.

Qishloq xo'jalik muassasasining turi ko'p jihadan qishloq aholi joylari shakli va o'lchamlariga, sekin-asta shahar sharoiti bilan tenglashadigan yashash sharoitlarining qulayligiga ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida tuman rejalashtirish loyihasini amalga oshirishda asosiy masala tuproq va ekinzorlar sifatini yaxshilash uchun olib boriladigan tabirlardir (suvini ketkazish, sug'orish, o'rmon-himoya hududlarini, suv omborlarini tashkil etish).

Kurort tumanlari. Rekreatsion xizmat ko'rsatish va hududning rekreatsion tashkil etilishi bilan tuman rejalashtirish shug'ullanadi. "Rekreatsion xizmat ko'rsatish" tushunchasi dam oluvchilar hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha xizmat

turlarini o‘z ichiga oladi (mehmonxona, tomosha ko‘rsatish, maishiy, ovqatlanish, transport xizmatlari).

Krurort tumanlarining tuman rejalashtirish loyihasida hal qilinadigan dastlabki masalaga ularning kurort va sog‘lomlashtiruvchi ahamiyatdagi resurslari: iqlim, dengiz, shifobaxsh minerallar, loylar va h.k.larni aniqlash kiradi.

Keyingi masalalar:

- kurort va shifobaxsh resurslarni aniqlash (iqlim, dengiz, tog‘lar, shifobaxsh mineral suv manbalari, shifobaxsh balchiq va h.k.);
- hududlarni funksional qismlarga ajratish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish radiuslari masalalarini hal etishda quyidagi iqtisodiy masalalarni e‘tiborga olish lozim:


- tashkilotlarni birgalikda joylashtirish.
- transport aloqalari.
- mahsulotni iste‘mol qiluvchi tumanlarga yaqinligi. Ko‘p mahsulotlarni ularni iste‘mol qiladigan joylarda ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Masalan: mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining tayyor mahsulotlarini xom ashyoga qaraganda tashish qiyinroqdir.
- quvvat omili tumanning o‘ziga xosligini belgilaydi va ularda korxonalar joylashtirishga ta’sir etadi. Quvvati katta elektr stansiyalari atrofida har doim ko‘p elektr quvvati sarflovchi ishlab chiqarish korxonalari joylashtiriladi.
- mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik.

Yirik shaharlar atrof qismi. Aholi joylashishi guruhli tizimiining asosiy shakllaridan biri shahar alomeratsiyalaridir. Ular o‘zida yirik va katta shaharlar va ularga tortiluvchi kamroq aholisi bo‘lgan shahar atrofi hududlarini jamlaydi. Shahar va shahar atrofi hududi o‘rtasida mustahkam ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik aloqalar mavjud. Tuman rejalashtirish asosiy shaharlar va shahar atrofi hududlarining vazifaviy ahamiyati va rivojlanishini ko‘rib chiqadi. Tuman rejalashtirishning bu yo‘nalishdagi muhim vazifalaridan biri – markaziy

shaharning o'sishini me'yoriy darajada boshqarilishiga mos holda hudud xo'jaligi tarmoqlarini kompleks joylashtirish hisoblanadi.

Shahar atrofi hududining chegaralarini belgilashda bir qancha omillar hisobga olinadi: ma'muriy bo'linish, asosiy shahar kattaligi, ushbu hududning kelajakdagi xalq xo'jaligida foydalanish mo'ljallari va h.k.

Tuman rejalashtirishning muhim vazifalaridan biri - shahar mikroiklimini yaxshilash va aholining dam olishi uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida markaziy shahar atrofida ko'kalamzorlar xalqasini hosil qilishdir. Xalqaning bevosita shaharga tegib turuvchi qismi odatda, qurilmalardan holi bo'ladi va yashil barer vazifasini bajaradi. Uydan dam olish joyigacha maksimal 1 soat uzoqlikkacha radiusda shahar aholisining qisqa muddatli ommaviy dam olish joylari tashkil etiladi. Ko'kalamzorlar xalqasining tashqi hududida uzoq muddatli dam olish joylari – sanatoriylar, dam olish uylari, sayohat maskanlari.



Namunaviy tumanni rejalashtirish loyihasi (loyihaviy reja fragmenti):

1–tuman chegarasi; 2–shahar yerlari chegarasi; 3–jamoa xo‘jaliklari chegaralari; 4–sanoat bo‘limlari chegaralari; 5–tuman markazi; 6–shaharlar va shahar tipidagi posyolkalar; 7–xo‘jaliklarning markaziy posyolkalari; 8–sanoat bo‘limlari posyolkalari; 9–hisob muddatigacha saqlanib qolinadigan boshqa qishloq aholi joylari; 10–qishloq xo‘jaligi muassasalarining ishlab chiqarish hududlari; 11–sanoat korxonalarini hududlari; 12–yashash hududining zahira maydonlari chegaralari; 13–sanoat korxonalarining zahira hududlari chegaralari; 14–davlat yer fondi; 15–o‘rmonlar; 16–o‘rmon pitomniklari; 17–qo‘riqxonalar; 18–meva bog‘lari; 19–ko‘chat pitomniklari; 20–shamoldan

himoyalovchi va eroziyaga qarshi ekinlar; 21–suv omborlari; 22–pristanlar; 23–dam olish hududlari; 24–dam olish uylari; 25–lager va dala hovlilar; 26–temir yo‘llar va stansiyalar; 27–davlat ahamiyatidagi yo‘llar; 28–viloyat ahamiyatidagi yo‘llar; 29–xo‘jalik ichidagi yo‘llar; 30–park avtoyo‘llari; 31–motellar; 32–kempinglar; 33–gaz quvurlari; 34–neft quvurlari; 35–suv quvurlari; 36–LEP (110...35 kV); 37–elektrostansiyalar; 38–ochiq suv olish joylari; 39–tozalash inshootlari; 40–quritiladigan hududlar; 41–aerodromlar; 42–ekin ekiladigan maydonlar; 43–foydali qazilmalar konlari.

O‘zbekistonda qanday loyihalash bosqichlari qabul qilingan?

O‘zbekistonda quyidagi loyihalash bosqichlari qabul qilingan:

- shahar rivojlanishining bosh tarxi (shahar rejalashtirish loyihasi) shaharni to‘la qamrab oladi. Buning tarkibiga transportni, muhandislik tarmoqlarini, ko‘kalamzorlarni va boshqalarni rivojlantirishning shartli chizmalari ham kiradi. Shahar bosh tarxi 20 yil muddatga ishlanadi. M 1: 10000;

- batafsil rejalashtirish loyihasi 7-10 yil muddatga ishlanadi. tarkibiga shaharning yirik bir qismini (markaz, sanoat qismi aholi joylashgan qismi va boshqalar) qamrab oladi. M 1:2000;

- qurilish loyihasi muddati 3-5 yil. Bu shaharning ayrim kichikrok bo‘laklarini qamrab oladi (kichik tuman, maydon, anhor bo‘yi, dam olish markazi va boshqalar). M 1:1 000, 1 : 500.

Shaharsozlik loyihalash tizimi.

Masshtab	Loyihalash davri muddati			
	Qamrab olinadigan hudud	25-30 yil	5-10 yil	2-3 yil
1 : 50 000	Ma‘muriy tuman	Tuman		

	Aglomeratsiya	rejalashtirish		
1 : 25 000	Sanoat tumani Kurort tumani	Shartli chizmasi va Tuman rejalashtirish loyihalari		
1 : 10 000	Shahar, ishchi qishloq, qishloq aholi yashash joylari	Shahar rejalash loyihasi	Birinchi navbat qurilishini joylashtirish shartli chizmalari	
1 : 2 000	Shahar tumani (turar joy, sanoat, kommunal xo'jalik) Kichik tumanlar Shahar tumani va qismlar (kichik tuman, mahalla)		Batafsil rejalashtirish loyihasi M I : 2 000	Qurilish loyihasi. Alohida ob'ektlar qurilish loyihasi


Amalga oshirish - reja va loyihalarni texnik, arxitekturaviy, hamda ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va boshqa tomonlarda hayotga tadbiiq etish hisoblanadi.

Shaharsozlik loyihalashning ko'p bosqichli iyerarxik tuzilish tizimi - bu umumiy va uzoq muddatli loyihalardan aniq va qisqa davrni qamrab olgan loyihalarga o'tishdir.

Tumanni rejalashtirish tuzilmalari va loyihalari borasida O'zbekistonda olimlari va shaharsoz-loyihachilari birga anchagina ishlar bajarilgan. «O'zbekiston hududida Regional aholi joylashuvi tuzilmasi», «O'zbekiston tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi», «Toshkent aglomeratsiyasi tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi», 2005 yilda «ToshkentboshplanLITI» tomonidan loyihalangan «Toshkent viloyati tuman rejalashtirish sxemasi 2020 yilgacha» va boshqa viloyatlar tumanni rejalashtirish tuzilmalari tomonidan ko'pchilik ma'muriy tumanlarning loyihalari ishlab chiqilgan.

«Toshkent aglomeratsiyasi tumanni rejalashtirish kompleks tuzilmasi» Toshkent vohasining kelajak rivojlanishi masalalarini kompleks yechish ustidagi birinchi urinish bo'ldi. Bu ishda bajarilgan Toshkent viloyati hududida aholi taqsimlanishi va aholi joylariaro aloqalarning tahlili o'zaro bog'liq aholi joylari guruhlarini, shu jumladan Toshkent aglomeratsiyasini ajratib olish imkonini berdi.

Toshkentning rivojlanishini tartibga solishning asosiy konsepsiyasi sifatida Toshkent aholi joylari guruhini rejali boshqariladigan aholi joylashuvi tizimiga aylantirish qabul qilingan. Aholi joylashuvi tizimining demografik sig'imi - 6 mln. kishi aniqlangan. Tabiat muhofazasi va landshaftlarni qayta tiklash bo'yicha qator tadbirlar ko'zda tutilgan.



Shaharning rivojlanishi.

I – birinchi bosqich (5-7 yil); *II* – hisob muddati (25-30 yil); *III* – kelajakka taxmin;

A – shahar rivojlanishining umumiy fazoviy modeli; *B* – jamoat markazining rivojlanishi.

Migratsiya jarayonlari hozirgi kunda juda murakkablashgan. Migratsiya oqimlarini mehnat resurslariga talab joylarga (Mirzacho‘l, Jizzax) yo‘naltirishning iloji har doim bo‘lmagan. Shu bilan bir qatorda migrantlarning ko‘pchilik qismi mehnat resurslari bilan nisbatan ta‘minlangan tumanlarga intilishi kuzatilgan.

Migratsion siyosatning shakllaridan bo‘lib yetib borish qiyin bo‘lgan neft-gaz tumanlarini o‘zlashtirishda ekspeditsiya va vaxta-ekspeditsiya usullari keng qo‘llanilmokda, u yerga aholi boshqa tumanlardan aviatsiya yordamida olib kelinadi.

Milliy muammolar bilan bog‘liq tumanlar (Qorabog‘, Qrim, Tojikiston, Checheniston va h.k.) va oshiqcha radiatsiyali tumanlardan (Chernobil va Semipalatinsk) odamlarni ko‘chirish bilan bog‘liq migratsiya jarayonlari ekstremal xarakterga ega. Zilzila, suv toshqinlari, vulqon otilishlari bilan bog‘liq tabiiy ofatlar hududlarida ham katta migratsiya jarayonlari kuzatiladi. Bular juda murakkab va og‘ir jarayonlar bo‘lib, o‘zlari bilan oldindan aniqlashga imkon bermaydigan katta demografik o‘zgarishlarni olib keladi.

Mehnat resurslarining ko‘ngilsizligi kelgan joylarida o‘rnasha olmay, tezlikda tashlab ketishlari tufayli odamlarning ommaviy noratsional migratsiyasi va ularning o‘rniga migrantlarning yangi katta oqimining oqib kelishini "*migratsion belanchak*" deb ataladi. Shuning uchun aholini jalb etishga ehtiyoji bo‘lgan tumanlarda «migratsiya belanchagi» jarayonlarining oldini olish uchun, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

30.D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaxarsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.

31.D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.

32.T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»

33.«Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»

34.G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)

35.Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»

36.Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve»
2006

37.Nilsen V.A. U istokov sovremennogo gradostroitelstva

38.Uzbekistana. Tashkent 1988.

39.A.Gutnov. V.Glazыchev. Mir arxitektury (Litso goroda). M.

4-Mavzu: Axoli yashash joyini bosh rejasi. Loyixalash va amalga oshirish

Aholi yashaydigan hudud: bunda turar-joy tumanlari, kichik tumanlar, aholiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari, ma'muriy jamoat tashkilotlari, ko'kalamzorlar, umumfoydalanadigan sport inshootlari, ko'chalar va maydonlar, zararsiz bo'lgan ayrim sanoat tashkilotlari, omborxonalar, tashqi transport qurilmalari va zahira hududlari joylashadi.

Aholi yashaydigan hudud, qoida bo'yicha, shamol yo'nalishi tomondan qaraganda sanoat hududidan oldin, daryo oqimining yuqorisida, suv havzalari, ko'kalamzorlar yaqinida joylashadi. Shaharning aholi yashaydigan hududini tashkil etishda unda turar-joy qurilmalarini, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalarini, jamoat markazlarini, ko'chalar tarmog'ini va umumiy foydalanish ko'kalamzorlarini to'g'ri (ratsional) joylashtirish ko'zda tutiladi.

Aholi yashaydigan hududlarda ishlab chiqarish chiqindilarini chiqarmaydigan va katta yuk aylanishiga ega bo'lmagan sanoat korxonalarini hamda ilmiy-tadqiqot institutlari va ma'muriy-xo'jalik muassasalari joylashishi mumkin.


Yirik va eng yirik shaharlar aholi yashaydigan qismida ko'pincha mustaqil shahar *loyihaviy tumanlari* o'zlarining xizmat ko'rsatish markazlari, mehnat joylari, ko'kalamzorlar tizimi va dam olish joylari bilan ajratiladi. Katta joyni

egallagan loyihaviy tumanlar, qoida bo'yicha turar-joy tumanlari, sanoat va dam olish (rekreatsion) tumanlarga bo'linadi.

Turar-joy tumani shaharning asosiy tarkibiy birligi hisoblanadi. Turar-joy tumani hududi quyidagi asosiy funksional qismlardan iboratdir:

- turar-joy kichik tumanlari;
- turar-joy tumani jamoat-savdo markazi;
- turar-joy tumanining bog'i va sport kompleksi;
- ko'chalar, maydonlar, bulvarlar.


Turar-joy tumanining kattaligi shaharni rejalashtirishning aniq sharoitlari bilan hamda uning jamoat markazini 15-20 daqiqalik piyoda yetish talablari, ya'ni 1000 - 1200 m masofa uzoqligi bilan belgilanadi. Bu taxminan 150-200 ga hudud bo'lib, unda 25-40 ming aholi yashaydi. Turar-joy tumani magistrallararo hududda shakllanadi va uning hududini tezkor ko'chalar, magistral ko'chalar va shahar ahmiyatidagi ko'chalar kesib o'tishi mumkin emas.



Yangi shahar turar-joy hududining o'ziga xos turlari.

- A* - 180ming aholiga mo'ljallangan, uzoqlashtirilgan sanoat hududi bo'lgan yangi shahar;
- B* - suv ombori bo'yidagi markaziy dam olish hududiga chiquvchi yashash hududi;
- B* - mahalliy sanoatga ulangan tuman;
- Γ* - shahar markaziga ulangan tuman. 50 ming kishiga mo'ljallangan, tuman markazi

loyihalanmagan.



60-80 ming kishilik shahar yashash hududining 25-35 ming kishilik turar-joy tumanlariga ajratilishi. Ular o‘zaro umumshahar markazi, transport magistrallari va ko‘chalar, piyoda yo‘llari, hamda ko‘kalamzor hududlar orqali bog‘langan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

40.D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaxarsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.

41.D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.

42.T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»

43.«Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»

44.G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)

45.Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»

46.Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve»

2006

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

Bosh rejalarni ishlab chikishda zamonaviy yondashuvlar

Bosh rejani rejalashtirish va qurish ko'p shartlarga bog'liq, ularning bir qismini shaharsozlik shartlariga kiritish mumkin.

Bosh rejaning umumiy arxitektura-fazoviy kompozitsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi shaharsozlik omillariga tabiiy iqlim, landshaft va boshqalar kiradi. Turar-joy tumanining tuzilishi transport magistrallarining joylashishiga ham bog'liqdir.

Bosh rejada aholi joylarining katta qismini egallaydi, ularning qurilmalari me'moriy yashash muhitini tashkil etadi, jamoat va sanoat binolari arxitekturasi bilan birgalikda shaharning umumiy me'moriy ko'rinishini belgilaydi.

Turar-joy tumanlarini rejalashtirish va qurishning memoriy badiiy vazifalarini yechish ijtimoiy, funksional, shaharsozlik va qurilish-texnologik talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

Turar-joy binolari jamoat va sanoat binolaridagi elementlari (oyna, balkon, lodjiya va boshqa) hamda fasadlar plastikasi ritmik bo'linishlarining va umuman hajmiy kompozitsiyaning mayda me'moriy nisbatiga egadirlar. Turar-joy binolari va majmualari arxitekturasining jamoat binolarini arxitekturasidan farqi ularning kompozitsion qurilishidadir. Jamoat binosi arxitekturasiga hajmlar va kompozitsion o'qlarning bir-biriga bo'ysunishi, asosiy o'qlarni, ommaviy kirish joylarini va boshqa asosiy elementlarni ajratish xarakterlidir. Turar-joy binosi arxitekturasiga esa teng kompozitsion o'qlarning ritmik qaytarilishi asosida kompozitsion qurishlar xosdir.

Turar-joy binolari va ularning komplekslari arxitekturasining bu o'ziga xos xususiyatlari yashil hovlilar, bolalar muassasalarining kichik jamoat binolari, kichik me'moriy , shakllar bilan ancha tinch, xotirjam va shinam yashash muhitni belgilaydi.

Blok-seksiyalarni qo'llash ochiq, yarim ochiq, yopiq hovlilari turli xil makoniy kompozitsiyali qurilmalarni qo'llashda, tarxda to'g'ri, egri va ko'p burchakli imoratlarni bir xil yoki aralash qavatli turlaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi. Loyihalashda blok-seksiyali usulni qo'llash me'moriy-makoniy yechimni iqlim, joyning reliefi, shaharsozlik sharoitlari xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Turar-joy tumanlari va kichik tumanlarning me'moriy-tarxiy yechimlarini shaharning hamma aholi yashaydigan qismi me'moriy-makoniy tuzilishining elementi sifatida qarash lozim, bu tuzilishdagi umumiy me'moriy g'oyani rivojlantirish, qo'shni tumanlar arxitekturasi bilan kompozitsion aloqani amalga oshirish lozim.

Bizning me'moriy amaliyotimizda turar-joy tumanlari va kichik tumanlarini loyihalash o'z bosqichlariga ega. 60-yillargacha bu - ko'chalar qizil chiziqlar bo'ylab perimetral qurilmalar, kvartallar ichidagi makonlariniig elementar shaklidir. 60 yillarda rejalashtirish ancha qulaylashib, insolyatsiya, aeratsiya, reliefnii hisobga olish va boshqa talablarga javob berishga harakat qiladi. Ammo namunali uylar oriyentatsiyasining cheklanganligi ularning bir xil satrli joylashib qolishiga, hayotda tor amorf koridorsifat perspektivalar tizimini namoyon etgan.

70-yillar xuddi shunday bir xil, qiyofasiz, masshtabsiz tarxiy tuzilmalar bilan xarakterlanadi. Faqat 80-yillardagina shaharsozlik va tabiiy-iqlimiy sharoitlarni, turar-joy tuzilmalarining kattaligini hisobga oluvchi individual, xilma-xil tarxiy kompozitsiyalar paydo bo'la boshladi.

Kichik tuman turar-joylar, maktablar, bolalar bog'chalari, savdo markazlari, obodonlashtirish elementlari kabi o'nlab inshootlarni o'z ichiga oluvchi murakkab organizmdir.

Bu majmuani kompozitsion hal etish uchun imoratlarning qavatini, ularning shakli, uzunligi, me'moriy ko'rinishi, rangi va hokazolarni to'g'ri tanlash muhimdir. Qurilmalarning ko'rinishini tashkil etuvchi va ularning memoriy

«jaranglashini» belgilovchi ochiq hududlarning o‘lchamlari, shakli, proporsiyalari, yoritilganligi, dinamikasi yoki statikasi rangli koloriti va boshqa xususiyatlari ham katta ahamiyatga ega. Turar-joy tumani yoki kichik tumanini agar uni makon va vaqtda rivojlanadi deb hisoblansa, faqat yangi turdagi ansambl sifatida qaralishi mumkin.

U an’anaviy memoriy ansambl sifatlariga ega emas: turar-joy kompleksida asosiy va ikkinchi darajali elementlar - klassik ansamblning shakliy asoslari yo‘q; frontal yoki o‘q bo‘yicha rivojlanadigan kompozitsiyani qurish uchun kerakli elementlar ham yo‘q.

Shunday qilib, turar-joy tumanlari va kichik tumanlarini qurishning badiiy xususiyatlari shundaki, ularga an’anaviy me’moriy kompozitsiya to‘g‘risidagi tasavvurlarni qo‘llab bo‘lmaydi.

Hozirgi zamon me’morchiligi uchun urbanistik manzaralarning bosqichma-bosqichligi xarakterlidir. Zamonaviy shahar panoramasida turar-joy massivlari ulkan shaharsozlik elementlari uchun (masalan baland qavatli imoratlar) makoniy fon vazifasini bajaradi. Bunda kompozitsion usullarni vizual qabul qilish juda muhimdir.

Turar-joy qurilmalarini tashkil etish usullari ularning o‘lchamlari, holati va boshqa qurilish sharoitlariga ko‘ra turlichadir. Ammo har qanday sharoitda ularning : makoni insonning kundalik hayoti uchun epizodik va qisqa vaqt turishga mo‘ljallangan monumental ansambl emas, balki qulay va shinam muhit tashkil etishi lozim.

Turar-joy qurilmalarida masshtablilik katta ahamiyatga ega, chunki turar-joy muhiti boshqalarga nisbatan inson o‘lchamlariga mutanosib bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun juda baland imoratlarini qo‘llashda, o‘rta va kam qavatli binolarni ham qo‘shish kerak, yoki ularni ancha kichik qismlarga bo‘lish kerak, bu inson o‘lchamlariga mutanosib muhit yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

47.D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaxarsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.

48.D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.

49.T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vrozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»

50.«Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»

51.G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)

52.Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»

53.Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve»
2006


2- amaliy: Kelajak shaxri – tizimli taxlilning zarur shartlari.

Hozirgi kunda ham arxitektorlar tomonidan bir necha kelajak shaharlari g'oyalari yaratilmoqda. Shulardan biri, kelib chiqishi belgiyalik bo'lgan fransuz arxitektori Vensan Kallebo (Vincent Callebaut) yaratgan 50 ming aholi uchun ulkan shahar-liliyadir (Lilypad).




XX asrda dunyo okeanining sathi atigi o‘n santimetrda ko‘tarilgan bo‘lsa, XXI asrda 50 santimetrda ko‘tarilishi taxmin qilinmoqda (buning uchun Antarktida muzining bor-yo‘g‘i 1 %i erishi kifoya). Ulkan shahar-liliya esa quruqlikdagi haroratning ko‘tarilishi oqibatlaridan qochadigan emigrantlar uchun mo‘ljallangan.

Ko‘rinishidan Lilypad ulkan suv liliyasiga o‘xshab ketadi (uning eng yirik turi – amazon liliyasiga). Qurilmaning ikki qavatli qoplami titan dioksidi bilan qoplangan poliefir tolasidan iborat. Shuningdek, quyosh batareyalari, shamol va to‘lqinlar energiyasi, Yerning biomassasi energiyasi, suvni tozalash va fitotozalashdan foydalanish ham ushbu loyihaga xosdir. Uning muvozanatini markazida joylashgan va chuchuk suv bilan to‘ldirilgan havza ushlab turadi. Bu qism okean sathi bilan baravar turadi va u yerda yomg‘ir suvlari yig‘ilib, qayta ishlanadi.



Lilypadning okeanga qaragan tomonida dengiz o‘simliklaridan tashkil topgan bog‘ bo‘ladi, devorlar qatlamida esa, odamlar yashaydi va dengiz flora va faunasini o‘rganuvchi olimlar tadqiqot olib borishadi.

Yana bir kelajak shahri, lekin hozirgi kunda qurilish ishlari boshlab yuborilgan g‘oya bu Norman Foster (Norman Foster) loyihalagan Birlashgan Arab Amirliklaridagi Abu-Dabi shahri yaqinida qurilayotgan Masdar shahri (Masdar City) loyihasidir. Arabchadan Masdar so‘zi “manba, buloq” ma’nolarini beradi. Ushbu loyihaning tashabbuskorlari (asosiy o‘rinda Masdar energetika korporatsiyasi turadi) shaharning dunyoda birinchi 0 % miqdorda karbonat anhidrid gazi va chiqindi chiqaruvchi aholi punkti bo‘lishini va’da berishmoqda. Shahar maydoni 6 million kvadrat metr bo‘lib, 40-48 ming aholini o‘zida jamlashi mumkin, shuningdek, undan ham ko‘p turistlarni har kuni qabul qila oladi.



Shahar yuqoridan qaraganda jimjimador konstruksiyalar bilan qoplangan va bu konstruksiyalar shaharni quyosh nuridan himoya qiladi. Shaharda keng quyoshdan qizigan asfaltli maydonlar umuman bo‘lmaydi, lekin bu ochiq fazoviy muhitlar bo‘lmaydi degani emas, balki bunday hududlar turar-joy atmosferasiga moslashtirilgan holda yaratiladi.

Shaharda barcha energiya quyosh va shamol energiyasi, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa qayta ishlanuvchi energiya manbalaridan quvvat oluvchi fotoelektrik panellar orqali ta‘minlanadi. Chiqindilar qayta ishlanishi natijasida 99 %ga qisqartirilgan. Shaharda karbonat angidrid gazini chiqaruvchi transport umuman qo‘llanilmaydi, shahar ichida avtomobillarning ekologik modellari qo‘llaniladi va keluvchilar faqat avtomobillardan birgalikda foydalanishi, hamda jamoat transportidan foydalanishlari mumkin.

Shuningdek, piyoda sayr qiluvchilar uchun uncha keng boʻlmagan va soya qilingan piyoda yoʻllari loyihalangan va unda qulay mikroiklim yaratish choralari koʻrilgan.

Abu-Dabi hukumati moʻljali boʻyicha shaharda dunyoning bir yarim ming kompaniyasi ofislari, laboratoriyalar va ilmiy tadqiqot institutlari joylashishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaxarsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.
2. D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.
3. T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»
4. «Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»
5. G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)
6. Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»
7. Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve»
2006
8. Nilsen V.A. U istokov sovremennogo gradostroitelstva
9. Uzbekistana. Tashkent 1988.
10. A.Gutnov. V.Glazыchev. Mir arxitektury (Litso goroda). M.
11. «Molodaya gvardiya» 1990.
12. Avdotin L.N. i dr. Gradostroitelnoye proyektirovaniye» Uchebnik
13. dlya VUZa M., Stroyizdat 1989.
14. ShNK 2.07.01 – 03
15. Persik Ye.N. «Rayonnaya planirovka (territorialnoye planirovaniye)»: Uchebnoye posobiye dlya vuzov 2006

. KYeYSLAR BANKI

Keyslarni bajarishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- Keysdagi muammoni samarali bartaraf etish yo‘llarini belgilang (kichik guruhlarda);
- Taklif etilayotgan muammoni yechish yo‘llarini asoslab bering (individual).

1-keys mazmuni

Yangi shaharsozlik nazariyasida va amaliyotida tarixiy shaharlarni saqlash, ta'mirlash va qayta qurish doimo dolzarb masalalardan biri bo‘lgan. O‘zbekiston va chet el mamlakatlari tajribasi buni isbotlaydi. Tarixiy shaharlar markazlari bugungi kunda mashinalar tirbandligi muammosiga duch kelmoqda. Natijada tarixiy hududlarda keng yo‘llar o‘tkazilib, tarixiy qismlarning buzilib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bu hududlarda zamonaviy binolarning qad ko‘tarishi tarixiy muhit yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Topshiriq:

1. Yuqoridagi muammolarni qanday yechish mumkinligi xususida takliflar bering?
2. Tarixiy shahar muhitini saqlab qolish bo‘yicha amalga oshirilgan jahon tajribasiga misollar keltiring?
3. Shaharlarda an‘naviylik va zamonaviylikni qanday uyg‘unlashtirish mumkin.

2-keys mazmuni

Sharq mash‘ali Toshkent kundan-kun chiroy ochib bormoqda. 2200 yillik tarixga ega bo‘lgan mustaqil O‘zbekiston poytaxti zamonaviy megapolisga ega bo‘lib bormoqda. Bu yerda ko‘plab ma‘muriy binolar, jamoat binolari, turar uy va hokazo ob‘ektlar qurilmoqda. Hududlarni landshaft tashkil etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Turizm infrastrukturasi yaratilmoqda. Ammo, Toshkent sayyohlar uchun sevimli makonga aylanmayapti. Toshkent asosan, tranzit yo‘lovchilar uchun

xizmat qilayapti, ya'ni sayyohlar Toshkentga samolyotda kelib, so'ng poyezd yoki avtobusda tarixiy shaharlarga yo'l olmoqdalar.

Glossariy

Termin	Ma'nosi	Description
Aglomeratsiya	Lotincha agglomerate - qo'shmoq, qo'shilib ketmoq ma'nosini bildiradi. Shaharlarning kengayib, bir biriga qo'shilib ketishi.	Adding means is added. The urban expansion, one of a merger.
Ark	Buxoroning qadimgi qal'asi. Amirlar saroyi bo'lib xizmat qilgan.	The ancient fortress. Served as a palace of the Emir.
Antropogen landshaft	Ma'lum darajada inson tomonidan o'zgartirilgan landshaft; tabiiy landshaftga antropogen komponentlar - inshootlar, madaniy o'simliklar, o'zgargan tuproq va boshqalar qo'shilgan.	Human-altered landscape; natural landscape of anthropogenic component structures, cultural plants, changing the soil and others.
Aholi yashaydigan qism	Turar-joy tumanlari va kichik tumanlari hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari bilan band bo'lgan hudud.	Residential areas and small districts, cultural and public service institutions in a busy area.
Aholi yashash joylarining regional tizimi (ART)	aholi yashash joylari bir-birlaridan uzoq joylashgan, ular o'rtasidagi kommunikatsiyalar rivojlanmagan, funksional aloqalar kuchsiz va turg'un emas.	Settlements are remote from one another, the communication between the development of functional relationships are weak and are not fixed.
Aholi yashash joylarining guruhli tizimi (AGT)	Aholi yashash joylari guruh tashkil etadi. Bir-birlari bilan rivojlangan kommunikatsiya turi va turg'un funksional aloqalar bilan bog'langan.	A group of residential areas. An advanced type of communication with each other with a functional and stable relations.

Berun	Shaharning tashqi mudofa devori ichidagi qismi. Tashqi shahar.	Part of the outer wall of defense of the city. Outside the city.
Bosh reja	Ob'ekt rejasining asosiy chizmasi bo'lib, loyihachi fikrlarini ifodalaydi va ishchi loyiha uchun asos hisoblanadi.	Object basic plans, which represents the views of the design and the working basis for the project.
Genezis	Kelib chiqish, bunyodga kelish, paydo bo'lish.	Origin, appears to be.
Geografik landshaft	Tuprogi, iklimi va shu kabi xususiyatlari bir xil bo'lgan geografik hudud, masalan: tog'li landshaft, agrolandschaft	Soil, climate, and similar properties in the same geographical area, for example: a mountainous landscape
Guzar	O'rta Osiyo shaharlarida daha, mahalladan kichik jamoat birligi, jamoat markazi vazifasini ham bajaradi.	Massif in the cities of Central Asia, particularly small social unit, and also functions as a community center.
Daha	Shaharning tarkibiy qismi, shahar kompozitsiyasiga bo'ysunadi va uning hududida umumshahar ahamiyatidagi jamoat markazlari joylashadi.	Part of the city, the city is subject to the compositions and the corresponding importance in the community center.
Dizayn	Landshaft arxitekturasida dizayn so'zi «me'moriy muhit dizayni» ma'nosida anglashilib, u ushbu muhitda badiiylik asosida landshaft elementlarini qamrab oluvchi ijodiy soha.	The word landscape architecture design architectural design of the environment he understood the meaning of these creative industries, including elements of the environment on the basis of artistic landscape.
Dorun	Shaharning ichki mudofa devori ichidagi qismi. Ichki shahar.	Part of the city in the interior wall of defense. The inner city.
Izotermlar	Xaritalarda yozgi o'rtacha harorati bir xil bo'lgan hududlarni birlashtiruvchi chiziqlar	Maps for the area where the average summer temperature is the same assembly lines
Kichik arxitekturaviy	Bog'-park kompozitsiyasining sun'iy elementlari: besedkalar,	Artificial elements fleet composition. gazebo, rotunda,

shakllar	rotondalar, pergalar va x.k.	pergola and other
Kompozitsion karkas	Asosiy magistral ko'chalar, umumshahar va tuman markazlari hamda boshqa arxitekturaviy majmualar, maydonlar tizimlari, ko'kalamzor hududlar. Ular shahar kompozitsion tuzilmasining asosiy tashkil etuvchilaridir.	The main street, and a corresponding regional centers, as well as other architectural complexes, land systems, green areas. Their main structural component of the composition of the city.
Ko'kalamzorlashtirish	Landshaftni qayta tiklash, qishloq joylarida, sanoat muassasalari atrofida himoya o'rmon chiziqlarini yaratish, ko'cha va magistrallar bo'ylab, turar-joy va kichik tuman chegaralarida, bog' va parklarda ekinlar ekish, muhandislik va agrotexnik tadbirlar yig'indisi	To restore the landscape in rural areas, industrial facilities around the protective forest lines along streets and highways, housing and the lower boundary of the district, the planting of crops, gardens and parks, and the sum of the engineering and technical activities
Ko'kalamzorlashtirish me'yori	Shaharning bitta aholisiga to'g'ri keladigan ko'kalamzorlashtirilgan maydonni ifodalovchi ko'rsatkich (m.kv. da)	A landscaped area that represents the corresponding figure for the population of the city (sqm)
Landshaft	Nem. Landchaft, mahalliy hudud ko'rinishi. O'zining kelib chiqishi, rivojlanishi bo'yicha bir turga ega bo'lgan tabiiy hudud ko'rinishi.	The appearance of the local area. Its origin, the development of a type of appearance of a natural area.
Landshaft arxitekturasi	Atrof-muhitni tabiiy va sun'iy me'morlik qurilmalari va elementlari yordamida badiiy shakllantirish sanati; me'moriy faoliyatning alohida turi; landshaft yaratish amaliyotining nazariy asosi.	Natural environment and the formation of artificial devices using the elements of art and architecture; A special type of architecture; the practice of the landscape to create a theoretical basis.
Landshat dizayni	Turli xil landshaft ob'ektlarini yaratish uchun tuzilgan loyiha; landshaft ob'ektlarining sun'iy elementlarini badiiy estetik	Project to create objects of a different landscape; landscape elements of artificial objects of artistic creation of adjusting certain functions on the basis of

	va ekologik qonuniyatlar asosida muayyan funksiyalarga moslab yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi.	aesthetics and ekologik laws of creative activity.
Maydon	Jamoat maqsadlarida foydalaniladigan kenglik	The wide range of public purposes
Makroiqlim	Mahalliy, region, mamlakat, materik iqlimi; dendrologik hududlarga ajratishda hisobga olinadi.	The local region, the country, the climate of the mainland; dendrology regions are taken into account.
Makrorelef	Yirik shakl bilan xarakterlanadigan tog‘ massivlari, tizmalari, plato, tepaliklar, kanonlar, chuqurliklar hududining reliefi.	Characterized by the form of the largest mining areas, ridges, plateaus, hills, canyons, relief of the depth of the territory.
Mayatnikli migratsiya	Aholining uyidan ish joyiga, madaniy-maishiy xizmat muassasalariga, dam olish va boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun borib kelishi.	People's house, the place of business, cultural and social service agencies, and other needs to go.
Mahalla	Kichik shaharsozlik bo‘linmalari.	A small town departments.
Megapolis	Aglomeratsiyalarning o‘sib, bir-biri bilan qo‘shilib ketishidan hosil bo‘lgan, katta urbanizatsiyalashgan hududlarni qamrab olgan birikma.	Agglomerations growth, a merger in which the compound of covering large areas of urbanization.
Mezorelef	Makro va mikrorelef o‘rtasidagi o‘rta relief. Unga daryo terrasasi, chuqurlik, katta bo‘lmagan dara, katta bo‘lmagan tepalik reliefi kiradi.	Between the macro and mikrorelef middle relief. Terrassa deep ravine of the river, the great relief of the hill.

Migratsiya	Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi.	People move from place to place.
Mikroiqlim	Bir joyda chegaralangan doirada yuz beruvchi iqlimiy hodisa (shahar, shaharning bir qismi); katta bo‘lmagan hudud yoki hududning bir qismi iqlimiy sharoitlari majmuasi	A limited range of climatic events (city, part of the city); a large area or a part of a complex of climatic conditions of the area
Mikrorelef	Park, bog‘ landshaftida mezorelef detallari hisoblanib, katta bo‘lmagan 1-1.5 m maydonni egallovchi relefning mayda elementlaridir.	Park, garden landscape mezorelef details of the size of a small area of 1-1.5 m relief elements.
Oriyentatsiya	Loyihalashning alohida elementlarini dunyo tomonlariga nisbatan joylashtirish: shimol-janub (ShJ), sharq-g‘arb (ShG’) va h.k	Special design elements of the world: the north-south (NS) and east-west (EW), etc
Rabot	Shaharni o‘rab turuvchi qal’a	Land surrounding the castle
Rekreatsion hudud	Dam olish va sog‘liqni tiklash uchun mo‘ljallangan shaharda, shahar atrofida maxsus ajratilgan hudud	And is designed to restore the health of the city, a special zone around the city
Sanitar-himoya qismi	Sanoat korxonasi, omborlar, kommunal va transport inshootlarini aholi yashaydigan qismdan ajratib turuvchi ko‘kalamzor hudud.	Industrial facilities, warehouses, utilities and transport facilities in populated parts separating green zone.
Sanoat hududi	Sanoat korxonalari, ularning transport va ombor xo‘jaliklari, yordamchi inshootlar va muassasalar bilan band bo‘lgan hudud	Industry, transport and warehouse enterprises, support structures and institutions engaged in the region

Tabiiy landshaft	asosiy landshaft komponentlari – yer yuzi, havo, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi o‘zaro uyg‘un va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan birlikni tashkil etgan hududiy majmua, fazoviy muhit.	The main components of the landscape - earth, air, water, flora and fauna of mutual harmony and unity of the regional complex space environment.
Tumanni rejalashtirish	Iqtisodiy yoki ma‘muriy tumanni kompleks hududiy-xo‘jalik tuzilishini loyihalash. Uning xalq xo‘jaligi tarmoqlarini, aholi mehnati va dam olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan tarxiy tarkibni shakllantirish.	Economic or administrative districts and complex territorial and economic structure of the project. Its economic sectors, labor and the rest of the population created favorable conditions for the formation of historical content.
Kichik tuman	Shahar aholi yashaydigan qismi tarxiy tarkibining birlamchi elementi. Unda aholi uy-joy va kundalik xizmat ko‘rsatish muassasalariga piyoda yetish darajasi ta‘minlanadi.	City residential part of the historical structure of the primary element. The population of housing and daily service institutions to provide foot.
Turar-joy tumani	bir nechta kichik tumandan iborat aholi yashaydigan qismining asosiy elementi.	A key part of a population consisting of several small districts.
Tumanni rejalashtirish	Iqtisodiy yoki ma‘muriy tumanni kompleks shaharsozlik-xo‘jalik tuzilishini loyihalash bilan shug‘ullanuvchi shaharsozlikning tarmog‘i.	Economic or administrative districts and integrated urban and economic structure of the project dealing with the urban network.
Urbanizatsiya	Shahar hayot tarzining barcha aholi joylariga yoyilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali, ulkan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. Jamiyat rivojlanishida shahar	City life in all public places associated with the spread of multi-faceted, massive socio-economic process. The increasing importance of social development of the city.

	ahamiyatining ortib borishi.	
Urbanizatsiyaning belgilari	Shaharlarda industriyaning o‘shishi, ularning madaniy va siyosiy funksiyalarining rivojlanishi. Qishloq aholisining shaharlarga oqib kelishi.	The growth of cities, industry, and the development of their cultural and political functions. The influx of rural population to the cities.
Soxta urbanizatsiya	Shahar orbitasiga qishloq migrantlarining sekin-asta tortilishi. Shahar atroflarida shakllangan keng «qashshoqlik maydonlarida» oldingi turmush tarzining uzoq saqlanishi.	City orbit of rural migrants is slowly brought to justice. Poverty around the city squares, stored in a previous life.
Tislanuvchi urbanizatsiya	Shahar aholisi salmog‘ining biroz kamayishi. Shahar aholisining shahar atrofi hududlarga intilishida kuzatiladi.	The urban population share decline slightly. The urban population is essentially suburban areas.
Shahar bosh tarxi	Shaharning kelajak me‘moriy-kompozitsion, funksional-makoniy, transport-injenerlik rivojlanishini belgilab beruvchi loyihaviy hujjat	The composition of the future architecture of the city, a functional space, determines the development of transport and engineering project document
Shahar tizimi	Yagona shahar ya’ni shahar yoki shaharlar guruhi sifatida funktsiyallashgan hududiy-hajmiy tizim	Single city or group of cities as funktsiyallashgan regional capacity
Shaharni obodonlashtirish	Shaharda sog‘lom va qulay qayot sharoiti yaratishga qaratilgan tadbirlar majmuasi.	A package of measures aimed at creating a healthy and comfortable conditions of reverting.
Shaharning rejaviy tuzilmasi	Uning barcha strukturaviy elementlarini birlashtirgan holda rejaviy-hududlarga ajratilishi.	It combines all the structural elements of the planning and allocation of areas.

Shaharning funksional hududlari	Sanoat, turar-joy, kommunal, transport va boshqa funksional hududlarning joylashishi va o‘zaro aloqasi	Industrial, housing, utilities, transportation and other functional interaction of the territory and
Shaharsozlik	Ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik, texnik-qurilish, transport va arxitektura-badiiy masalalarni birgalikda hal qiluvchi shahar va aholi yashash joylarini rejalashtirish va qurish nazariyasi va amaliyoti	Socio-economic, sanitary-hygienic, technical, construction, transportation, architecture and art issues Together, a key city and the theory and practice of construction and planning of settlements.
Shaharsozlik ob’ekti	Hududiy mavqeyidagi shaharsozlikni loyihalashtirishning har qanday hududiy-rejaviy ob’ekti.	The regional position of the urban design of any object of regional planning.
Shaharsozlik talablari	Ob’ektlar qurilishi va loyihalanishining asosiy me’yorlari va qoidalaridir, shu bilan birga, landshaft arxitekturasi ham qonunlar va tavsiyalar majmuasini aks etadi.	Construction and loyihalanishining the basic principles and rules, however, the landscape architecture is also reflected in the laws and recommendations.
Qizil chiziq	Ko‘cha, park, maydon, magistral bilan qurilmalar o‘rasidagi ajratib turuvchi, chegaralovchi chiziq.	The street, the park, the area between the main devices that limit the line that divides.
Qurilish chizig‘i	Qurilayotgan hududning chegarasini belgilaydi	Define the boundaries of the construction site.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Maxsus adabiyotlar.

54.D.U. Isamuxamedova, L.A. Adilova. «Shaxarsozlik assoslari va landshaft arxitekturasi». I, II kism. Toshkent, 2009 g, 2012 g. Darslik.

55.D.U. Isamuxamedova, A.T. Ismoilov, A.T. Xotamov. «Injenerlik ovodonlashtirish va transport» Darslik. T. «Alokachi». 2009 g.

56.T.F. Кадырова «Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana. Traditsii i sovremennost»

57.«Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy»

58.G. M. Lappo «Geografiya gorodov» (1997)

59.Vavakin L.V., Belousov V.N. «Gradostroitelstvo v vek informatizatsii»

60.Ikonnikov A.V. «Prostranstvo i forma v arxitekture i gradostroitelstve»
2006

61.Nilsen V.A. U istokov sovremennogo gradostroitelstva

62.Uzbekistana. Tashkent 1988.

63.A.Gutnov. V.Glazыchev. Mir arxitektury (Litso goroda). M.

64.«Molodaya gvardiya» 1990.

65.Avdotin L.N. i dr. Gradostroitelnoye proyektirovaniye» Uchebnik

66.dlya VUZa M.,Stroyizdat 1989.

67.ShNK 2.07.01 – 03

68.Persik Ye.N. «Rayonnaya planirovka (territorialnoye planirovaniye)»: Uchebnoye posobiye
dlya vuzov 2006

Internet saytlar

69.<http://www.arhitekto.ru/txt/2razv16.shtml>

70.http://www.glazychev.ru/books/mir_architecture/glava_8/glava_08-01.htm

71.http://www.natlib.uz/rus/calendar_2006.pdf - Natsionalnaya biblioteka Uzbekistana

72.<http://www.archunion.com.ua/slovarik.shtml> - arxitekturnaya ensiklopediya